

**06.06.2022 221100120965321 lotga asosan  
OLDI-SOTDI SHARTNOMASI-02**

2022 y. «22» 6

2022-222-7-105-MT-  
son

Urgut t.

“NUR BARAKA SERVIS GROUP” MCHJ, keyingi o‘rinlarda “Sotuvchi” deb yuritiladi. O‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi **F.Boqiyev** nomidan, bir tomondan va **Urgut tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi**, keyingi o‘rinlarda “Sotib oluvchi” deb yuritiladi, O‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi rahbar **J.Zoitov** nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

Nº	Mahsulot nomi	O‘lchov birligi	Miqdori	Bahosi	Summasi
1	Gaz plita	dona	6	8300000	49800000
Jami QQS bilan					49800000

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Sotuvchi o‘ziga tegishli bo‘lgan tovar (mahsulot)ni ushbu spetsifikatsiyaga asosan Sotib oluvchiga o‘z vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, Sotib oluvchi esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. Shartnomaning umumiyligi summasi QQS bilan **49 800 000** (Qirq to‘qqiz million sakkiz yuz ming) so‘mni tashkil qiladi.

### 2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1. “Sotib oluvchi” mazkur shartnomani Urgut tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasida ro‘yxatga olingan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiyligi summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to‘lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so‘ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to‘laydi.

2.2. “Sotuvchi” avans mablag‘lari Sotuvchining tegishli hisobvarag‘iga kelib tushgan vaqtidan boshlab 10 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. “Sotuvchi” amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. “Sotib oluvchi” tovarlarni qabul qilishda “Sotuvchi” ishtirokida olinayotgan tovarlarning to‘liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko‘rsatilgan tovarlarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo‘yicha barcha xarajatlar Sotuvchi hisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Sotib oluvchining roziligidagi ko‘ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Sotib oluvchining mas’ul xodimlari tomonidan dalolatnomaga bo‘yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko‘rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

### **3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### **3.1. Sotib oluvchining huquqlari:**

Sotuvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan davlat standartlari va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlashni talab qilish;

Sotib oluvchi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Sotuvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlarida boshqa hollar belgilanmagan bo‘lsa;

Sotuvchidan mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo‘yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o‘z ixtiyoriga ko‘ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o‘xshash tovar bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg‘araz bartarf etish;

-Sotuvchidan mazkur shartnomaga shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

#### **3.2. Sotib oluvchining majburiyatları:**

- mazkur shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to‘lash.

#### **3.3. Sotuvchi quyidagi huquqlarga ega:**

- “Sotib oluvchidan” oldindan to‘lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi ko‘zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

- Sotib oluvchidan shartnomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

#### **3.4. Sotuvchining majburiyatları:**

- Sotib oluvchiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Sotuvchi shartnomaga shartlari va me’yorlardan yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi chetga chiqishga yo‘l qo‘ygan hollarda Sotib oluvchining talabi bo‘yicha 15-kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg‘araz bartaraf etish.

**3.5. Mazkur shartnomaga belgilangan tartibda mazkur shartnomaga shartlari va talablari va O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.**

**3.6. Tomonlar o‘z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta’milagan taqdirda shartnomaga bajarilgan hisoblanadi.**

### **4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKHLARI**

**4.1. Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek Sotuvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi Sotuvchiga tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo‘yicha esa —10 foiz miqdorida jarima to‘laydi.**

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, Sotuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to‘lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2. To‘lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to‘lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to‘lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik,akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun Sotib oluvchi mahsulot Sotuvchiga o‘zi to‘lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun Sotib oluvchi Sotuvchiga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.

#### 4.3. Sotuvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo‘yicha Sotuvchi shartnoma shartlarining Sotib oluvchi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;
- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;
- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo‘yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo‘jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (Sotib oluvchi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to‘lashni rad etib, Sotuvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to‘lab qo‘yilgan bo‘lsa, to‘langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarlar yetkazib bergenlik uchun jarima Sotuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to‘liq yetkazib berilmagan, tovar Sotuvchi sotib oluvchiga (Sotib oluvchiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlari yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to‘lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to‘liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi qo‘yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o‘ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o‘ralmagan tovarlarni yetkazib bergenlik uchun Sotuvchi sotib oluvchiga (Sotib oluvchiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to‘laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo‘natilishi yoki saqlanishi kerak bo‘lgan hollarda sotib oluvchi (Sotib oluvchi) jarima undirishdan tashqari, o‘z kuchi bilan, lekin

Sotuvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi Sotuvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlarni kelishuviga asosan shartnomani 5.1 bandi bajarilmagan taqdirda tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilinib, sud orqali hal qilinadi.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnomada bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

## 7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## 8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnomada Urgut tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-y. 31-dekabrigacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'milagan hollarda shartnomada bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

### Sotuvchi

Nur Baraka Servis Group Mchj

Manzil: Urgut tuman Bog'ishamol ma

INN: 306254240

OKONX: 71150

X/R: 20208000705042634001

Bank: Hamkorbank Urgut bo'limi

MFO: 01157

Rahbar:

F.Boqiyev

M.O.:

(imzo)



### Sotib oluvchi

Urgut tuman maktabgacha ta'lim  
bo'limi

Manzil: Urgut shahri Navoiy shoh  
ko'chasi

INN: 207266806 OKONX: 92400

X/R: 1002286018236709110251087

23402000300100001010

Toshkent sh. Markaziy Bankining  
Toshkent sh. XKKM

MFO: 00014 INN: 201122919

Rahbar: J.Zoitov

M.O.: (imzo)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№

**1. Loyihaning turi:** Shartnomा.

**2. Loyihaning nomi:** Oldi-sotdi shartnomasi.

1.1 “NUR BARAKA SERVIS GROUP” MCHJ, keyingi o‘rinlarda “Sotuvchi” deb yuritiladi. O‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi F.Boqiyev nomidan, bir tomondan va **Urgut tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi**, keyingi o‘rinlarda “Sotib oluvchi” deb yuritiladi, O‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi rahbar **J.Zoitovlar** tomonidan mazkur shartnomा tuzildi.

1.2. Shartnomaning umumiy summasi **49 800 000** (Qirq to‘qqiz million sakkiz yuz ming) so‘mni tashkil qiladi.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Urgut tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan 2022-yil 17-iyun kuni LT23013176-son hujjat raqami bilan ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

**XULOSA**

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” 1998-yil-29 avgustdagи 670-I-son qonuni hamda Xalq Deputatlari Samarqand Viloyat Kengashining 2022-yil 18-martdagи VI-59-63-7-0-K/22 qarori va amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**O. Yoqubov**

2022-yil 20-iyun